ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

KASALLIKLARNI DAVOLASHDA SO‘ZNING TA’SIRI

Avliyoqulova Lola Bebutovna

Buxoro davlat universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Har qanday faoliyat o‘zining amaliy ahamiyati bilan qiymatli. Nutq muloqot shakli bo‘lganligi uchun uning samarasi ham nutqning ta’sirchanligi, ma’lum bir maqsadga erishganligi bilan belgilanadi. Ushbu maqolada isonlarning, xususan, tibbiyot sohasi vakillarining bemorlar bilan bo‘ladigan muloqoti qay shaklda amalga oshishi va to‘g‘ri tashkil qilingan mutaxassis nutqining bemorlar salomatligi yaxshilanishida qanchalik ahamiyatga ega ekanligi xususida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: *psixolog, tibbiyot deontologiya, muloqot, tashqi va ichki kasalliklar, psixomatika, psixolingvistika, nutq madaniyati.*

Nutqiy faoliyatni nutq akti mazmuni bilan so‘zlovchining maqsad-niyati orasidagi aloqadorlik nuqtayi nazaridan o‘rganadigan soha psixolingvistikadir[1]. Ushbu sohaning asosiy o‘rganish obyekti inson nutqi va uni o‘rganish masalasidir. Bugungi kun tilshunos olimlari tilni insondan ayro holda o‘rganishning, uni tahlilga tortishning iloji yo‘q, degan qat’iy fikrdalar. Darhaqiqat, lingvistika kommunikatsiya jarayonida qo‘llaniladigan til vositalarining tizimini o‘rgansa, psixolingvistika uchun esa mana shu til vositalarining yuzaga chiqish jarayoni va uning qabul qilinish jarayoni muhimdir. Bemor bilan kechadigan nutqiy jarayonda shifokor yoki psixolog o‘z bemorining ichki kechinmalarini tasvirlash orqali uni kitobxonga tanishtiradi. Ba’zi tadqiqotchilar psixologizmni inson ichki dunyosini kashf etuvchi usul, deb hisoblashmaydi. Shu bois, qahramon ruhiy olamining ko‘rinishida ruhiyatning o‘ziga xos tasviri deb qabul qilinadi.

Tibbiyot psixologiyasi bemorning nafaqat jismoniy xastaligini, balki shu xastalikni keltirib chiqaruvchi omillar (bu omil tashqi omil bo‘lishi ham, ichki omil bo‘lishi ham mumkin)ni aniqlab, avvalo, uni bartaraf etish choralarini ko‘radi. Bugungi kunda soha mutaxassislarining ma’lumotiga qaraganda, inson tanasini bezovta qiluvchi aksariyat xastaliklar uning ruhiy muammolari, ichki azoblari, kuchli stress, depressiya oqibatida hosil bo‘ladi. Bu holat tibbiyot tilida “psixomatika” deb nomlanadi. “*Kasalliklar,* – deydi psixolog Muxtazar Nazarova, – *inson ruhiy holatiga, ong ostiga bevosita bog‘liqdir. Agar yosh bolalarga e’tibor berilsa, ular kasallikdan kattalarga nisbatan tezroq tuzalib ketishadi, o‘z immunitetlarini tezda ko‘tarib olishadi. Chunki, yosh bolalarda ruhiy charchoq, stress, depressiya holatlari kam uchraydi. Ular yomon narsalarni, yomon hodisalarni tezda unutib yuboradilar, ya’ni ruhiy tomondan tezda o‘zlarini qo‘lga oladilar. Kattalarda esa aksincha, bu ruhiy depressiyalarning uzoq vaqt kechishi sabab, tanadagi jismoniy xastalik ham tezda tuzalib ketmaydi*”.

So‘zimiz avvalida bugungi tilshunoslik va tibbiyot sohasining bog‘liqligiga bejizga to‘xtalmadik. So‘z bu – tig‘, so‘z bu – qurol, so‘z bu – malham. Azal-azaldan so‘zning eng kuchli qurol sifatidagi kuchini ham, uning shifobaxsh qudratini ham anglab yetgan oqil insonlar bu “kuch”dan o‘z maqsadlari yo‘lida foydalanganlar. Mashhur yunon hakimi Buqrotning “*Inson ruhini davolamay turib tanga shifo berib bo‘lmaydi*”, degan so‘zlari fikrimiz dalilidir. Zamonaviy tibbiyotda kasalliklarni davolashda so‘zning shifobaxsh ta’siridan foydalanish kun sayin ortib borayotgani ham bejiz emas. Bugungi zamonaviy tibbiyot insonlar orasida ruhiy muammolardan tashqari ruhiy kasalliklar ham borligini ko‘rsatadi. “*Ularning turlari juda ham ko‘p, yuzdan ortiq ruhiy kasalliklar*

[1] Xolmonova Z., Usmonova Z. Sh. Psixolingvistika. – Toshkent, 2018. –B. 8-10.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

bor. Nevroz, psixoz, depressiya, aqli zaiflik shular jumlasidandir", – deydi oliy toifali psixolog F.Hamidullayev. Bemorlardagi ruhiy o'zgarishlarni, buning qay darajada ijobiy yoxud xavfli ekanligini aniqlash ular bilan olib borilgan muloqot jarayonida, turli psixologik amaliyotlarda o'z ifodasini topadi. Inson aqliy va fiziologik faoliyatining mevasi – nutq orqali muloqot jarayonida namoyon bo'ladi. Shu sababdan nutq madaniyatiga qadim davrlardan katta e'tibor qaratib kelingan.

Nutq madaniyatiga, bemor bilan muloqot jarayoniga bekam-u ko'st amal qilish oson ish emas. Bu tibbiyot xodimidan yuksak ruhiy manbani, yuqori madaniyatni, o'ta nozik darajadagi sezgirlikni, sabr-matonat va, hattoki, aktyorlik mahoratini ham talab etadi.[2] Shifokor bemor bilan muloqotni amalga oshirayotgan vaqtda har bir narsani e'tiborga olmog'i lozimdir. U bemor nutqiga qanchalik diqqatini qaratsa, o'z so'zlayotgan so'ziga ham shunchalik e'tiborli bo'lishi muhimdir. Bunda shifokorning nutqi chiroyli, aniq, tushunarli, sodda bo'lishi bilan birga nutqning ohangi, so'zlarning talaffuzi, hattoki, nutq so'zlovchining ovozi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, shifokorning o'zi qanday ruhiy (charchagan yoki stress holati) holatda bo'lmasin bemor bilan muloqot jarayonida uning nutqida bu narsa sezilmaligi, aksincha, nutq doimo yaxshi kayfiyatda, samimiylik bilan amalga oshirilmog'i kerak va shifokor nutqining eng muhim jihati undagi ishonch ohangining mavjudligidir. Ya'ni, shifokorning bemor oldida ikkilanishi, qayg'uga botishi, ishonchsizlikka berilishi, ayniqsa, buni nutqi orqali sezdirib qo'yishi aslo mumkin emas. Chunki, bu holat bemorda o'z shifokoriga nisbatan ishonchini va tuzalishga bo'lgan umidini yo'qqa chiqaradi. Buni quyidagi nutqiy jarayon orqali tahlilga tortamiz:

Teridagi toshmalar sabab (allergiyaning bir ko'rinishi) bir necha tibbiyot maskanlariga murojaat qilishga majbur bo'lgan bemor kasallikning tuzalish o'rniga battar avj olgani sabab yana bir shifoxona eshigini taqillatishga majbur bo'ldi. Stol ustidagi katta va qalin daftarga bir nimalarni yozayotgan shifokor boshini ko'tarmasdan bemordan uni nima bezovta qilayotganini so'radi. Bemor shifokorning bu harakatini kuzatib bir pas jim turdi-da, oldingi shifokorlarga aytganlarini yana bir marta hafsalasizgina takrorlashni boshladi. Bemordagi bu holatni sezgan shifokor darhol boshini ko'tardi-da, katta va qalin "do'st"ini yopib bir chetga surib qo'ydi. Bemorning gaplari tugamasdan uni to'xtatib:

– Siz rostdan ham tuzalishni xohlaysizmi? – deb so'radi.

Bemor to'satdan berilgan bunday noodatiy savolga ishonchsizgina "ha" deb javob berdi.

– Unda hech nimani o'ylamang, menga ishoning. Shunchaki, ishoning vassalom va men sizni davolayman.

Shu lahzada bemorda shu kungacha sodir bo'lmagan yangi bir alomat paydo bo'ldi. Bu "ishonch alomati" edi. Buni shifokor bemorining yosh aylanayotgan ko'zlaridan sezdi.

Bir necha daqiqagina davom etgan ushbu muloqot jarayonida shifokor uchun ham, bemor uchun ham katta hodisa sodir bo'lganiga guvohi bo'lamiz. Ya'ni, shifokorning o'z xatosini vaqtida anglab, uni bartaraf eta bilgani, bemor bilan nutqiy jarayonni to'g'ri olib borgani bemorining ishonchini zabt eta bilishiga olib keldi. Bu esa shifokor uchun yuz foizlik g'alaba demakdir.

Soha mutaxassislarining ta'kidlashicha, xavfli o'sma, yurak kasalliklari, ruhiy kasalliklari mavjud bo'lgan bemorlarga nisbatan nihoyatda ehtiyotkorlik va muloyimlik bilan muomala qilish talab etiladi. Bu jarayonda, ayniqsa, asosiy mas'uliyat hamshiralar zimmasiga tushadi. Ular davolanish davrida bemor bilan eng ko'p muloqotni amalga oshiruvchi kishilar sirasiga kiradi. Bunday hollarda ko'plab psixiatrlar hamshiralardan, avvalo, bemor xastaligining taxminiy diagnozi, shaxsi, kasbi,

[2] Qosimov E. Y. Shifokorning nutq madaniyati va bemor bilan muloqot san'ati. T.: Sharq, 2002. –B.80-82

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

ijtimoiy sharoiti, dunyoqarashi, bilim saviyasini va ularning ruhiy holatlarini o‘rganib, keyin ular bilan muloqot jarayonini amalga oshirishni maslahat beradilar. Bemorga uning hayoti, salomatligi boshqalar uchun muhim ekanligini his ettira olishning o‘zini ko‘zlangan maqsadga erishish deb hisoblash mumkin. E’tiboringizni dunyoga mashhur “Doktor House” teleserialidan olingan quyidagi bemor hamda unga mas’ul hamshira o‘rtasidagi muloqot jarayoni aks etgan lavhaga qaratsak:

– Operatsiyadan bosh tortibsiz?

– Ha.

– Nima uchun? Axir shifokorlar operatsiyadan keyin tuzalib ketishingiz ehtimoli yuqori deyishyapti-ku. Bundan tashqari, ular o‘z ishining eng kuchli mutaxassislari.

– Hayotim meniki emas, uni Tangri menga ato etgan. Qaytarib oladigan ham uning o‘zi. Bunga qarshiligim yo‘q, qachon istasa olaversin. Men tayyorman!

– Shundaymi? Unda ayting-chi, nega bu yerdasiz? Hayotingiz shunchalik qiymatsiz ekan, nega unda chorrahadan o‘tayotganda avval chapga, keyin o‘ngga qaraysiz? Maslahatim, tezda bu yerdan keting-u, shifokorlarni o‘zingizdan xalos eting. Chunki, ular sizga o‘xshagan hayoti o‘zi uchun keraksiz insonlardan ko‘ra hayotni sevadigan, bu ne’matni qadrlaydiganlar uchun ko‘proq kerak. Bundaylar esa juda ko‘p.

Suhbat jarayoniga e’tibor bergan bo‘lsangiz, hamshiraning bemorga nisbatan biroz keskin muomala qilganligini sezish qiyin emas. Chunki, shu davrgacha u bemorni, uning shaxsini, ichki olamini, u bilan muloqotni qanday amalga oshirish kerakligini o‘rgangan. Shu sababdan bemorga ta’sir etishda bemor shaxsiga xos bo‘lgan usuldan foydalangan.

“*Bemor bilan muloqot jarayonida unga* ***“yo‘q”, “bo‘lmaydi”, “mumkin emas”, “aslo”, “mutlaqo”*** *so‘zlarini ishlatish mumkin emas. Chunki, bunday so‘zlar aytilgan vaqtda bemor gapirishdan to‘xtaydi, ular ortiq sizga o‘z muammolarini, dardlarini aytmay qo‘yadilar*”, – deydi oliy toifali psixiatr Gavhar Teshaboyeva. Soha mutaxassisining fikricha, bemorning fikrlari, uning qarashlari qanchalik noto‘g‘ri bo‘lmasin psixolog unga **“yaxshi”, “ma’qul”, “yomon emas”, “ha”, “qo‘shilaman”, “men siz tomondaman”** so‘zlarini ko‘proq ishlatish ancha samarali natija beradi. Ushbu fikrlarni rad etmagan holda shularni qo‘shimcha qilishimiz mumkinki, bemor kasallik davrida ruhiy tushkunlikka tushadi va bu kuchli stressga olib kelishi ham mumkin. Bunday davrda bemor, u kim bo‘lishidan qat’iy nazar o‘ziga “ittifoqdosh” qidiradi. Bu “ittifoqdosh”ning tibbiyot xodimlari yoki bemorning yaqinlari bo‘lishi ancha maqsadga muvofiqdir. Kasallik davomida stress holati bemorni o‘zini ojiz va zaif his etishiga olib keladi. Bunday vaqtda esa bemor o‘zining yonida ruhan kuchli, o‘ziga ishongan, qat’iyatli insonlarni ko‘rishni xohlaydi. Bu bilan bemor o‘zining ruhini ham oziqlantiradi. Shuning uchun ham bemor oldida bo‘shashish, o‘zini yo‘qotib qo‘yish, ikkilanish, dovdirash, qayg‘uga botish, aslo, mumkin emas.

Odatda, ichki holat birinchi yoki uchinchi shaxs tilidan tasvirlanadi. Ichki holat birinchi shaxs nomidan ifodalanganda istig‘for etishni eslatadi. Bu, ayniqsa, G‘arbiy Yevropa adabiyotida sentimentalizm keng avj olgan davrga xos bo‘lib, epistolyar janr, maktub, asdalik, tush va ichki monologlarda o‘z aksini topgan N.Shodiyev “Ruhiyat rassomi”[3] risolasida “qalb dialektikasi”ning (qahramon his va kechinmalarining paydo bo‘lishi va rivojlanishi jarayoni) asosiy poetik vositalar – ichki monolog, nutqiy xarakteristika, psixologik portret hislarning tashqi ekspressiyasi, galyutsinatsiyasi, tush va psixologik timsollar va ularning turli xususiyatlari tahlil qilinadi. uchinchi shaxs tomonidan tasvirlanganda kuzatish imkoni yuzaga keladi, ya’ni bir nechta qahramonnning

[3] Shodiyev N. Ruhiyat rassomi. – T.: Fan, 1977. – B. 106.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

psixologik holatini tasvirlash mumkin. Bu o‘rinda shifokor yoki psixolog tasvirlanayotgan ichki holatga diqqat bilan tinglaydi va jarayonga o‘zi baho beradi. Garchand, uchinchi shaxs orqali insonni tasvirlash usuli jahon psixologiyasida biroz keyin qo‘llanilgan. Chunki, bir shaxsning ichki dunyosini uchinchi shaxs tomonidan yoritilishi etikaga to‘g‘ri kelmaydi, degan aqida mavjud bo‘lgan. Biroq, bugungi kunda bu jarayonga bo‘lgan munosabat anchayin o‘zgargan. Hozirda psixologlar bemorga to‘g‘ri tashxis qo‘ya olishi, uning muammolariga kerakli yechimni topa olishi uchun, bemor haqida yetralicha ma’lumotlarga ega bo‘lishi muhimdir. Ammo, bu ma’lumotlar faqatgina bemorning o‘zi tomonidan aytilganlari bilan cheklanmasligi kerak, deb hisoblashadi soha mutaxassislari. Chunki, odatda, ko‘pgina insonlar o‘zlarida ruhiy muammoga duch keladigan bo‘lishsa, albatta bu muammo sabablarini boshqalardan ham, o‘zlaridan ham berkitishga urinishadi. Bunday vaziyatlarda esa psixologga yuqoridagi “uchinchi shaxs” omili yordamga keladi. ya’ni, psixologning oldin bemor bilan va shu jarayonda uning oila a’zolari, do‘stlari, qo‘shnilari, hamkasblari bilan muloqotda bo‘lib, ularni ham eshitishi bemor haqida to‘g‘ri xulosa shakllanishiga hamda to‘g‘ri tashxis qo‘yilishiga yordam beradi.

Og‘ir xastalikni boshdan kechirayotgan bemorning ruhiyati ham ancha kuchsizlanib qoladi va bu o‘z navbatida uning psixologiyasiga ham turli ta’sirlarni o‘tkazmay qolmaydi. Binobarin, bu davrda bemor ancha ta’sirchan, jizzaki, pessimist, e’tiborsiz bo‘ladi. U atrofida kechayotgan voqea-hodisalarga qiziqish bildirmaydi, o‘zini doim oqimdan chetda ko‘rishni xohlaydi. Soha mutaxassislarining ta’kidlashicha, hatto, ayrim bemorlar o‘zlarining ruhiy azoblarini ancha bo‘rttirib itodalashga moyil bo‘ladilar va ular orasida o‘zlaridagi kayfiyatni boshqalarga ham “yuqtirishga” urinuvchilari ham yo‘q emas. Shu sababdan ular bilan nutqiy muloqot jarayonida har bir so‘z, uning talaffuzi, ohanggi masalasiga katta e’tibor qaratiladi. “Yaxshi so‘z – jon ozig‘i”, degan maqolni dono xalqimiz bejizga aytishmagan. Haqiqatan, o‘rnida topib aytilgan yaxshi va oqil so‘z tanga jon bag‘ishlash qudratiga ega. Ammo, so‘z so‘zlovchi nutqi qaratilgan insonning ruhiyati, uning ichki kechinmalari va nutq vaziyatini ham inobatga olishi zarur. Aks holda so‘z tildan chiqqach u boshqa maqsadlarga ham “xizmat qilishi” mumkin.

Boshqaruv psixologiyasi mutaxassisi Boboyor To‘rayev *“Kasalliklarni davolash ikki yo‘l bilan amalga oshiriladi. Bular: birinchisi so‘z, ikkinchisi esa dori-darmon hamda tig‘. Bulardan birinchisi orqali ruh davolanadi, ikkinchisi bilan esa tana. Agar ruh davolanmasa, tana ham hech qachon tuzalmaydi”*, – deydi soha mutaxassisi. Bundan xulosa qilishimiz mumkinki, so‘z har qanday dori va malhamdan kuchliroq va samaraliroq. Buyuk insonparvar shoir Alisher Navoiy yaxshi so‘zni hayot bilan tenglashtirgan. Darhaqiqat, shifokordan najot kutayotgan, hayotini uning qo‘liga topshirgan bemor uchun so‘zning qiymati mana shunday qudratga ega, desak xato bo‘lmaydi.

Fikrlarimizni xulosalar ekanmiz, bugungi kunda inson nutqini nutqiy vaziyatdan kelib chiqib tahlil etish, so‘zning ta’sir kuchini o‘rganish tilshunoslik oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Zero, kasalliklar va ularni davolashda so‘zning ta’siri muhim ekanligining o‘zi tilni inson va uning ruhiyatidan ayro holda o‘rganishning imkoni yo‘qligini ko‘rsatib beradi. Mana shu nutqning yuzaga chiqish va uni qabul qilish jarayonini o‘rganish esa psixolingvistikaning asosini tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Xolmonova Z., Usmonova Z. Sh. Psixolingvistika. – Toshkent, 2018. –B. 8-10.
2. Qosimov E. Y. Shifokorning nutq madaniyati va bemor bilan muloqot san’ati.
T.: Sharq, 2002. – B.80-82.
3. Shodiyev N. Ruhiyat rassomi. – T.: Fan, 1977. – B. 106.
4. https://natmedlib.uz/fm/?plugin/officeViewer/&path
5. https://studfile.net/preview/16840266/page:3/